

**Mavzu: O'pkali mollyuskalar hayot tarzi va ichki tuzilishi**

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo`nalishi*

*1-bosqich talabasi Xamidillaryeva Muxlisa Xayrullo qizi*

**Annotatsiya:** o`pkali mollyuskalar har xil hayot tarzida yashash xususiyatiga ega.ularning nerv hujayrasi, o`pkasi, ayirish organi, tana bo`shlig`i, tana bo`limlari yuragi paypaslagichlari mavjud.

**Kalit so`zlar:** o`pkali mollyuska, bilateral simmetriya, assimetrik, selom qobiq,spermotomorf, gelmintoz, lakun,sinus,tok shillig`i.

Mollyuskalar xilma xil tuzilgan eng qadimgi hayvonlar guruhi hisoblanadi. Ular quyidagi xusussiyatlari bilan boshqa hayvonlar ajralib turadi.Ko`pchilik turlari bilateral simmetriyalı hayvonlar.ba`zilarida organlarning joylashuvi ozgarib assimetrik shaklga kiradi. Ko`pchililing tanasi bo`g`imlarga bo`linmagan,ammo tuban vakillarida metamerlik tuzulishga xos bo`lgan belgilarni ko`rish mumkin. Tanasi bosh, gavda, oyoq deb ataluvchi uch bolimdan iborat. Faqat ikki tavaqalilarida bosh bolmaydi.qorin devoridan hosil bo`lgan o`simgalar orqali harakatlanadi,ular ikkilamchi tana bo`shliqli hayvonlar bo`lib, selom qobigi yurakoldi xaltasi perikardiy va jinsiy bezlari boshlig`idan iborat.Mantiya bilan tanasi oralig`ida mantiya bo`shlig`i bo`lib unda Jabra va ayrim sezgi organlari joylashgan. Ayirish, orqa chiqaruv va jinsiy bezlarning teshigi ham shu bo`shliqqa ochiladi. Bir qancha mollyuskalarning chig`anogi tarixiy taraqqiyot davrida yo`qolib ketgan.

O`pkali mollyuskalar. Qorinoyoqli mollyuskalar kenja sinfi.Chig`anog`ining kattaligi 0,5- 2,0mm keladi. Ularning chig`anogi teshigi atrofida tishsimon o`sinqchalar bo`lib chig`anoq ichiga tortiluvchi oyoqlari chig`anoqqa tortilganda o`simgalar mantiya chetidagi yumshoq toqimaga tegib undan shilimshiq modda ajralib chiqsa boshlaydi.Shilimshiq modda havoda qotib, chig`anoq teshigini

berkitadi.bu esa mollyuskalarning hayot faoliyatini taminlovchi muhim hayotiy funksiya hisoblanadi. Mollyuskada Jabra bo`lmaganligi sababli ular o`pka orqali nafas oladi va bu tip yonbosh nerflilar va chig`anoqlilar kenja tipiga ajratiladi. Mantiya bo`shlig`i yuzasi o`pka vazifasini bajaradi.O`troqko`zlilar va poyachali ko`zlilar deb ataluvchi bu ikki turkumning 100 dan ortiq oilasi 35000 ga yaqin turi borligi aniqlangan. Quruqlik o`pkali molyuskalar ohak po`choq bilan o`raglan tuxumlarini maxsus joyga, suv muhitida yashovchi o`pkali molyuskalar esa maxsus kapsula bilan o`raglan tuxumlarini suv o`simliklari yoki toshlar ostiga yopishtirib qoyadi. Mollyuskalarning ko`pchiligi spermotomorf ba`zilari esa tirik tug`ib ko`payadi va ular germofrodit organizmlar hisoblanadi.Quruqlikda yashaydi va ba`zi turlari ikkilamchi tarzda suv muhitida yashashga o`tgan.Bu organizmlar metamorfozsiz rivojlanadi.Mollyuskalar tipiga mansub bo`lgan o`pkali molyuskalar asosan o`simlikxo`r ba`zi vakillari esa yirtqich organizmlar hisoblanadi.Suv muhitida yashashga moslashgan turlari baliqlar ularning oziqlari va har xil mayda plankton organizmlar bilan oziqlanadi,quruqlik muhitida yashashga moslashgan turlari esa o`simlik barglari va maysalar bilan oziqlanib atrof muhitga katta zarar keltiradi. Ba`zi vakillari gelmintozlarni tarqatadi. Lekin bular orasidan ham istemolga yaroqli turlari uchraydi.Bularga tok shilligini olsak boladi.Qon aylanish sistemasi ochiq bo`lib,qoni tomirlarda oqishi bilan birgalikda lakunlar va sinuslar deb ataladigan naylar orqali ham o`tadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. "Umurtqasizlar zoologiyasi" O.Mavlonov, X.Eshova
- 2.ARXIV.UZ SAYTI
3. 7-SINF ZOOLOGIYA DARSЛИGI.